O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlandi”
Rektor M.T.Xodjiyev
____________________
“29” 08 2024-yil
№______________

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI

# O‘ZBEK HIKOYACHILIGI FANI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Guliston-2024

Scanned with ACE Scanner

| | |
|---|---|
| Fanning nomi | O'zbek hikoyachiligi |
| Fan/modul kodi | O'H2406 |
| Fan/modul turi | Tanlov |
| O'quv yili | 2025/2026 |
| Fan semestri | 4 |
| Ta'lim tili/turi | O'zbek/kunduzgi |
| Fanga ajratilgan soat/kredit | 180/6 |
| Auditoriya soat/kredit | 72 |
| Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat/kredit | 108 |

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanning maqsadi:** O'zbek hikoyachiligi fani talabalarda hikoya janri xususiyatlarini umumiy va xususiy tomonlarini puxta o'rganishga tayyorlaydi va o'zbek adabiyotining hikoya borasidagi yutug'ining ilg'or tomonlarini targ'ib, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'zbek hikoyachiligi ulkan davrni qamrab oladi. XX asrda hikoya talabiga to'la javob beradigan asarlar yozilgan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda mavjud an'analarning ta'siri milliy qissachiligimizda ko'zga tashlanadi. Jahon adabiyotidagi hikoyachilik maktablarining ta'siri ham bu omillarni chetlab o'tmaydi.

**Fanning vazifasi:** O'zbek hikoyalarini o'rganish va estetik tahlil etish, bu asarlarning xalqimiz hayotidagi ahamiyatini tushuntirish;

- badiiy adabiyotdagi xalq og'zaki ijodi va boshqa xalqlarning adabiy madaniy aloqalar ta'sirini hikoyalar tahlili misolida ko'rsatib berish bilimiga ega bo'lish;
- hikoyalarda milliy ruhning yorqin aks etganligini ko'ra olish ko'nilmasini shakllantirish.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM

**(Ma'ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta'lim mavzulari)**

**II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

| № | Modul nomi | Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan mavzular | Amaliy mashg'ulot bo'yicha mavzulari | Seminar mashg'ulot bo'yicha mavzulari | Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1-mavzu: O'zbek hikoyachiligi tarixiy taraqqiyoti | Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotdagi mavjud an'analarning ta'siri. O'zbek hikoyachiligining vujudga kelishidagi yetakchi tamoyillar. Uning sabablarini o'rganish hamda ular asosida hikoyalarning yuzaga kelishi | G'afur G'ulom va Oybek hikoyalari | O'zbek hikoyachiligi ning tarixiy taraqqiyoti | O'zbek hikoyachil igida mavzu ko'lami |
| 2 | 2-mavzu: Hikoya janri xususiyatlari | Hikoya atamasi. Hikoya janri mohiyati. Bu boradagi adabiy tanqidiy qarashlar. Hikoya janri xususiyatlari. O'zbek hikoyachilida shakliy-uslubiy izlanishlar | Abdulla Qahhor hikoyalari | Hikoya janri xususiyatlari | A.Qahhor hikoyalari |
| 3 | 3-mavzu: O'zbek hikoyachiligida | Hozirgi o'zbek hikoyachiligidagi | Said Ahmad hikoyalari | O'zbek hikoyachiligi | A.Qahhor |



Scanned with ACE Scanner

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | yetakchi tamoyillar | yetakchi tamoyillar. O'zbek hikoyachiligida milliy an'ana talqini. Xalq og'zaki ijodidagi va mumtoz adabiyotdagi mavjud an'analarning o'zbek hikoyachiligiga ta'siri. Qahramonlar ruhiyati tasvirida mahorat va uslub masalasi | | da yetakchi tamoyillar | hikoyalari da til mahorati va badiiy detaldan foydalanishi masalasi |
| 4 | 4-mavzu: O'zbek hikoyalarida qahramon masalasi | Hikoyalarda millat fojeasining aks etishi. O'zbek hikoyachiligi va adabiy-tanqidiy qarashlar. Hikoyalarda ijtimoiy muhit, xarakter va ruhiyat. Obrazlar tizimi, badiiy g'oya, mavzu va obrazlilik masalalari | O'tkir Hoshimov hikoyalari | O'zbek hikoyalarida qahramon masalasi | Said Ahmad – hajviy hikoyalar ustasi |
| 5 | 5-mavzu: Hikoyalarning mavzu jihatdan turlari | Hikoyalarni mavzu ko'lami jihatdan tahlil qilish. Tarixiy, zamonaviy, fantastik, badiiy-tahliliy, biografik qissalar. Davr, qahramon, hayot tasviri va ruhiyat | Shukur Xolmirzayev hikoyalari | Hikoyalarning mavzu jihatdan turlari | O'zbek hikoyalari da bolalar obrazi |
| 6 | 6-mavzu: Tarixiy mavzudagi hikoyalar | Tarixiy va zamonaviy mavzudagi qissalar badiiyati va yetakchi qahramonlarning asar tuzilishida tutgan o'rni. Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy shaxs obrazini yaratish. Tarixiy voqyelik. Tarixiy shaxs. Badiiy to'qima. Tarixni aks ettirish. Tarixiy shaxslar va tarixiy voqyelikka badiiyat mezonlari asosida haqqoniy yondashish | Xurshid Do'stmuhammad hikoyalari | Tarixiy mavzudagi hikoyalar | Tarixiy mavzulardagi hikoyalarda tarixiy haqiqat va badiiy to'qima |
| 7 | 7-mavzu: Zamonaviy mavzudagi hikoyalar | O'zbek hikoyachiligida badiiylik mezonining o'ziga xos aks ettirilishi. Yuksak badiiyat va yozuvchi mahorati. Badiiylikning yangicha shakllari va mazmuni. Zamonaviy | Isajon Sulton hikoyalari | Zamonaviy mavzudagi hikoyalar | Hajviy hikoyalarda tasvir yaratish mahorati |



Scanned with ACE Scanner

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | voqeylik va badiiylik. Xalq va xalqchillik. Hikoyalardagi polifonik tasvir xususiyatlari. Davr voqealari talqini va ramziylik | | | |
| 8 | 8-mavzu: O'zbek modern hikoyachiligi | Hikoyachilikda noan'anaviy talqinlar, uslubiy o'zgarishlar. Modernizm tushunchasi. Qahramon yaratish tamoyillari. Jahon adabiyotidagi an'analar va o'zbek hikoyachiligidagi o'zgarishlar. Tahlil va talqinlar. Badiiy asar va adabiy tanqidiy qarashlar. Badiiy obraz yaratishda noan'anaviy talqin. Adabiy ta'sir masalasi | Nazar Eshonqul hikoyalari Shoyim Bo'tayev hikoyalari | Avtobiografik hikoyalar | Hikoyalarda psixologizm masalasi |
| 9 | 9-mavzu: Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi | Mustaqillik davrida yaratilgan hikoyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Hikoyachilikda noan'anaviy talqinlar, uslubiy o'zgarishlar. Qahramon yaratish tamoyillari | Salomat Vafo va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari | O'zbek modern hikoyachiligi Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi | Hukoyalarda poetik nutq va mahorat masalasi |

## III. Fanni o'qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

**Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:**

"O'zbek hikoyachiligi" fani talabalarda hikoya janrini mukammal o'rganishga tayyorlaydi va o'zbek adabiyotining hikoya borasidagi yutug'ining ilg'or tomonlarini targ'ib, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi **(bilim)**;

o'zbek xalqi madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan hikoyalar, adabiy figuralar, nazariy-poetika masalalari bilan tanishadi. Hikoyahilikdagi eng muhim adabiy yo'nalishlarni o'rganadi, o'zbek hikoyalaridagi yetakchi badiiy obrazlar va ularing o'rnini aniqlaydi **(ko'nikma)**;

hikoyalarning o'zbek adabiyotidagi falsafiy, badiiy, ruhiy-ma'naviy omillarini o'rganadi. Zamonaviy va boshqa mavzudagi hikoyalarning takomilini aniqlaydi. O'zbek hikoyalarida adabiy ta'sir masalalari hamda tadrijiylik prinsiplari ni tallil etadi **(malaka)**.

## IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;



Scanned with ACE Scanner

- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

**V. Kreditlarni olish uchun qo‘yiladigan talablar**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Каримов ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
2. Normatov U. Ijod sehri, T.: Sharq, 2007.
3. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. Дарслик. – Т.: Янги нашр, 2010.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.: Sharq, 2004.


**Qo‘shimcha adabiyotlar**


5. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
6. Йўлдошев Қ. Очқич сўз. – Т.: ADAD PLUS, 2019.
7. Umurov H. Adabiy ijod asoslari. Samarqand. SamDU nashri, 2019.
8. Hamdamov U. Janon adabiyoti: Modernizm va postmodernnizm. – T.: Akademnashr, 2020.
9. Rasulov A. Badiiylik-bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007.


**Axborot manbalari:**


10. www.kutubxona.uz
11. www.natlib.uz
12. www.ziyonet.uz


**Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**


**Fan/modul uchun ma’sullar:**

I.Saymuratova – Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dots.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar:**

I.Yoqubov – A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

D.To‘rayeva – Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)




Scanned with ACE Scanner